

Milliy liboslar - bizning faxrimiz

2025 19 Sentabr

Uzbekistan Airways aviakompaniyasida o'zbek xalqining madaniy merosi va an'analarini asrab-avaylash va ommalashtirishga bag'ishlangan an'anaviy "Xon atlas" festivali muvaffaqiyatli o'tkazildi. Bayramning asosiy urg'usi milliy liboslar bo'lib, ularni aviakompaniya xodimlari faxr bilan taqdim etishdi.

Festivalni o'tkazilishi allaqachon aviakompaniyaning ezgu an'anasiga va O'zbekiston tarixi hamda madaniyatiga nisbatan e'tiborli munosabatning ramziga aylandi.

